“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS”

TALABALARNING RAQAMLI AXBOROTNI BAHOLASH FAOLIYATIDA INSON QADRI VA IJTIMOIY MAS’ULIYAT MEZONLARINI QO‘LLASH

Abdug‘aniyev Ozod Tursunboy o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy kotibi
PhD, professor
DOI : 10.67620/ajousci.230040

Annotatsiya. *Maqolada umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikning raqamli axborotni tahlil qilish va tarqatish faoliyatida namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Raqamli muhit, media madaniyati va qadriyatli tanlovga oid qoidalari asosida axborotning ishonchliligi bilan uni tarqatishning axloqiy maqbulligi alohida tahlil qilinadi. Inson qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizlik, adolat, bag‘rikenglik va mas’uliyat raqamli qarorning mazmuniy mezonlari sifatida aniqlashtiriladi. Raqamli vaziyatlar matritsasi, o‘quv modulining topshiriqlari va kuzatiladigan natijalar tavsifi taklif etiladi. Nazariy-metodik natijalar talabaning texnik faolligidan ko‘ra dalillangan va hurmatga asoslangan raqamli harakatini o‘rganishga yo‘naltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *umuminsoniy qadriyatlar, raqamli axborot, media savodxonlik, inson qadri, raqamli etika, ijtimoiy mas’uliyat, manba tekshiruvi, onlayn muloqot, shaxsiy daxlsizlik, qadriyaviy qaror.*

Kirish

Bugungu globallashuv sharoitida talaba tekshirilgan axborotni ham boshqalarning qadr-qimmatiga zarar yetkazadigan tarzda tarqatishi mumkin. Masalan, haqiqiy voqeani tasdiqlovchi materialda shaxsning yordamga ehtiyoji, xatosi yoki noqulay holati ochiq ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin. Materialning haqiqiyligi uni keng tarqatish qarorini to‘liq asoslamaydi. Raqamli axborot bilan ishlashda “bu ma’lumotga ishonsa bo‘ladimi?” va “uni shu shaklda tarqatish qanday oqibatga olib keladi?” savollari birga ko‘rib chiqilishi lozim.

Shuning uchun ham raqamli kompetentlilik tanqidiy tahlil, huquqiy-axloqiy mas’uliyat va muloqot madaniyati bilan bog‘langan. Axborotni tekshirish, onlayn bahsda inson sha’nini saqlash, shaxsiy ma’lumot va raqamli iz oqibatini anglash qadriyatlarning zamonaviy ifodasi sifatida yoritilgan [1]. Demak, raqamli kompetenlik axborotni baholash va undan foydalanishning aniq o‘quv vazifalariga aylantiriladi. Talabalarning raqamli axborot bilan ishlashida inson qadri va ijtimoiy mas’uliyat mezonlarini qo‘llash tartibini asoslash hamda o‘quv topshiriqlarini loyihalashdir. Ma’lumki, qadriyat shakllanganligi bahoni qanday bog‘lash orqali talabaning

raqamli qarorini kuzatiladigan qilish mumkin? Bunda asosiy predmet elektron platformani tanlash emas, axborotni izlash, talqin qilish, tarqatish va tuzatishdagi tanlovdir.

Xorijiy ta’lim tadqiqotlarida UNESCOning media va axborot savodxonligi bo‘yicha dasturida axborotni izlash, tanqidiy baholash, undan foydalanish va mazmun yaratish qadriyat hamda munosabatlar bilan birga qaraladi [2]. Raqamli fuqarolik ta’limiga oid Yevropa Kengashi qo‘llanmasida media savodxonlik, etika va empatiya, huquq va mas’uliyat, daxlsizlik va xavfsizlik alohida yo‘nalishlarda yoritilgan[3]. Ushbu manbalar asosida maqolada raqamli harakatning axborot va axloqiy tomonlarini bog‘lovchi mualliflik tartibi taklif etiladi. Oliy ta’limga oid tavsiyalar qadriyaviy kompetensiyalarni universitetdagi ta’lim va ishtirok bilan bog‘lashga asos beradi[5]; raqamli vaziyatlar shu faoliyatning bir qismi sifatida tanlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasidagi inson qadr-qimmatining oliy qadriyat sifatidagi mazmuni o‘quv vaziyatlarini tanlash uchun normativ tayanchdir[4]. Bu tayanchdan kelib chiqib, mashg‘ulotlarda shaxsni kamsitish, zaif holatini ommalashtirish yoki bir guruhni umumiy salbiy sifat bilan ifodalashning oqibatlari muhokama qilinadi. Muayyan platformaning amaldagi tartibi yoki huquqiy javobgarlik masalalari maqolaning tahlil predmetiga kiritilmaydi. Axborotning ishonchliligini o‘rganishda muallif, dastlabki manba, voqea vaqti, kontekst, dalilning tekshirilishi hamda boshqa mustaqil manbalar bilan moslik ko‘rib chiqiladi. Qadriyali baholashda esa axborot kimga taalluqli ekanligi, shaxsning manfaat va daxlsizligi, tasvir yoki iboraning kamsituvchi mazmuni, tarqatish ehtiyoji va muqobil yo‘l aniqlashtiriladi. Har ikki tahlilning o‘z savoli bor; ularni alohida qayd etish talabaning qaror sababini ravshanlashtiradi.

Ba’zi materiallar ma’lumot jihatidan to‘g‘ri, ammo kontekstdan uzilgani tufayli bir tomonlama taassurot yaratishi mumkin. Eski tasvirga yangi voqea izohi qo‘shilishi yoki ayrim gapning davomidan ajratilishi shunday holatdir. Talaba bu yerda materialning tarkibiy qismlarini tekshirishi kerak: tasvirning o‘zi, unga yozilgan izoh va undan chiqarilgan xulosa bir xil dalil darajasiga ega bo‘lmasligi mumkin. Qadriyaviy tahlil noto‘g‘ri taassurotning odamlar haqidagi hukmga qanday ta’sir qilishini ochadi.

Inson qadri mezoni shaxsni muammo bilan tenglashtirmaslikni talab qiladi. Yordamga ehtiyoj haqidagi axborotda odamning ovozi, irodasi va manfaatini hisobga olish muhim. Adolat mezoni materialda turli tomonlarga qanday imkon berilganini, bag‘rikenglik mezoni guruhga doir umumlashtirishning asosini, mas’uliyat mezoni esa xabarni tarqatish yoki tuzatishdagi shaxsiy hissani aniqlashtiradi. Ushbu mezonlar topshiriq mazmuniga qarab tanlanadi; har bir vaziyatda ularni sun’iy ravishda bir xil sanash shart emas. Ishonchsiz, lekin ezgu maqsad bilan berilgan xabar ham mas’uliyatli qaror uchun yetarli tayanch bo‘la olmaydi. Shuning uchun talaba materialdan voz kechish, uni tekshirishni davom ettirish, yetishmagan kontekstni qo‘shish yoki boshqa shaklda ifodalash variantlarini ko‘radi. Qaror faqat “ulashaman” va “ulashmayman” o‘rtasidagi tanlovdan iborat bo‘lmasligi mumkin. Axborotni qayta ifodalash va xatoni ochiq tuzatish ham o‘quv faoliyatining mazmunli natijasidir.

Qadriyat shakllanganligini baholash tartibi avvalo, birinchi harakat materialdagi da’voni aniq ifodalashdir. Talaba xabar nimani tasdiqlayotganini, nima esa izoh yoki hissiy munosabat ekanini ajratadi. Keyin dastlabki manba va kontekst aniqlanadi. Manba topilmasa, bu holat javobda ko‘rsatiladi; dalil yetishmagan joyga taxmin kiritilmaydi. Tekshiruvning maqsadi oldindan yoqqan yoki yoqmagan xabarni tasdiqlash emas, qaror uchun zarur asosni aniqlashdir. Navbatdagi harakat axborotda tasvirlangan shaxslar va unga ta’sirlanadigan auditoriyani belgilashdan iborat. Talaba kimning ovozi mavjud, kimning fikri berilmagan, kimga zarar yoki foyda tegishi mumkinligini yozadi. Shundan so‘ng mazmunning qadriyaviy tomoni muhokama

qilinadi: shaxsiy daxlsizlik, hurmat, adolat va mas’uliyatdan qaysi biri muhim bo‘layotgani asoslanadi. Umumiy “bu yomon” yoki “bu foydali” bahosi yetarli bo‘lmaydi. Yakuniy harakat amaliy qaror va uning shartini ifodalashdir. Talaba xabarni tarqatish, kutish, izoh bilan berish, shaxsga doir tafsilotni chiqarish yoki tuzatishdan birini tanlaydi. “Agar dastlabki manba tasdiqlansa, umumiy ehtiyoj haqidagi ma’lumotni shaxsni tanituvchi tafsilotsiz beraman” kabi shartli qaror tekshiruv bilan axloqiy bahoni bog‘laydi. Qaror varag‘ida yangi dalil paydo bo‘lsa, nimani qayta ko‘rish kerakligi ham ko‘rsatiladi.

1-jadval.

Raqamli vaziyatlarda qadriyali yondashganlik tahlili

O‘quv vaziyati	**Tekshiriladigan jihat**	**Qadriyatli savol**	**Qaror dalili**
Eski tasvirga yangi izoh	Vaqt, joy va dastlabki manba	Noto‘g‘ri taassurot kimga ta’sir qiladi	Kontekstni tiklovchi izoh
Yordamga ehtiyoj haqidagi xabar	Ehtiyoj va xabar muallifi	Shaxsning daxlsizligi qanday saqlanadi	Tafsilotni tanlash asosi
Guruh haqidagi umumlashtirish	Da’voning dalili va qamrovi	Turli insonlar bitta sifatga tenglashtirilganmi	Asosli va hurmatli qayta ifoda
Onlayn bahsdagi keskin izoh	Fikr va shaxsga oid gap farqi	E’tiroz kamsitishsiz qanday aytiladi	Dalilga qaratilgan javob
Tarqatilgan xatoli ma’lumot	Xato va to‘g‘ri manba	Xatoni tuzatish mas’uliyati qanday bajariladi	Ochiq tuzatish matni

Matritsa har bir vaziyat uchun tekshiruv va qadriyaviy savolni ajratadi. Masalan, yordam haqidagi xabarda haqiqiy ehtiyojni tasdiqlash bilan shaxsni tanituvchi tasvirni e’lon qilish ikkita qarordir. Birinchisiga dalil topilgani ikkinchisini avtomatik asoslamaydi. Talaba axborotning zarur qismini tanlash, ortiqcha tafsilotni chiqarish va mazmunni tushunarli saqlash orqali inson qadri mezonini amaliy harakatga aylantiradi.

Demak, ta’limda o‘quv moduli va topshiriqlar asosida taklif qilinayotgan modul ketma-ket mashg‘ulotlarga mo‘ljallanadi. Dastlab talabalar ikki xil materialni o‘rganadi: birida tekshirish uchun yetarli manba, ikkinchisida esa shaxsga doir ortiqcha tafsilot mavjud. Har bir talaba mustaqil qaror yozadi. Keyingi muhokamada axborotning haqiqiyligi, berilish usuli va tarqatish oqibati alohida tahlil qilinadi. Pedagog xulosani oldindan aytmay, tekshirilmagan gap bilan dalillangan fikr farqini ochadigan savollar beradi. Keyingi topshiriqda kichik guruhlar bir xil mazmunning turli shakllarini qiyoslaydi. Sarlavha, tasvir va izohning har biri qanday taassurot hosil qilgani qayd etiladi. So‘ng har bir ishtirokchi shaxs qadrini saqlaydigan va dalilni aniq ko‘rsatadigan muqobil matn yaratadi. Guruh mahsuloti bilan birga individual izoh ham olinadi. Bu izoh qaysi tafsilot nima sababdan o‘zgartirilganini ochib beradi. Yakuniy topshiriqda talaba yangi materialga mustaqil baho beradi. Uning mavzusi avvalgisidan farq qilishi, biroq tekshiruv va qadriyaviy tanlov talabi saqlanishi kerak. Masalan, dastlab yordam haqidagi xabar bilan ishlangan bo‘lsa, yakunda jamoa faoliyatiga doir keskin izoh olinadi. Shunday almashtirish talabaning tayyor misolni takrorlayotgani yoki mezonni yangi vaziyatga qo‘llayotganini kuzatishga imkon beradi.

2-jadval.

Modulda talaba faoliyati va kuzatiladigan natija

Vazifa	**Talabaning mahsuloti**	**Kuzatiladigan natija**
Da’voni ajratish	Fakt, izoh va taxmin qaydi	Gapning dalil darajasini farqlaydi
Manbani tekshirish	Manba va kontekst varag‘i	Yetarli va yetishmagan asosni ko‘rsatadi
Ta’sirni tahlil qilish	Tomonlar va oqibatlar tavsifi	Shaxsning manfaatini hisobga oladi
Mazmunni qayta ifodalash	Muqobil xabar yoki javob	Dalil va hurmatni birga saqlaydi
Qarorni qayta ko‘rish	Tuzatish va sabab yozuvi	Yangi dalilga javoban tanlovini aniqlashtiradi

Mashg‘ulot uchun real shaxslarning noqulay tasvirlari yoki shaxsiy yozishmalarini yig‘ish shart emas. Metodik vaziyat tekshirish uchun zarur belgilarni saqlagan holda yaratilishi mumkin. Internetga kirish imkoniyati cheklangan guruhga manba paketini bosma shaklda berish ham asosiy vazifani bajarishga imkon beradi. Bunda raqamli qidiruv tezligi baholanmasa-da, axborot va qadriyaviy qarorning sifati o‘rganiladi.

Qadiyat shakllanganligi natijalarni baholash va muhokama qilishda- baholash to‘rtta jihatga qaratiladi: da’voning asosini ajratish, tekshiruv chegarasini anglash, shaxs manfaatini hisobga olish va qarorni dalillash. Yuqori sifatli javobda talaba qaysi manba yetarli ekanini, qaysi tafsilotni chiqarish kerakligini va tanlangan yo‘lning oqibatini mustaqil tushuntiradi. Yo‘naltirishga ehtiyoj sezilgan javobda esa mezon aytiladi, ammo uning materialga tatbiqi qisman ochiladi. Tavsiflar avvalo individual mahsulotga qo‘llanadi. Platformaga kirish soni, yozilgan izohlar miqdori yoki materialning ommaviyligi mazkur natijalarni bevosita o‘lchamaydi. Faoliyat qaydi mashg‘ulotda ishtirok etilganini ko‘rsatishi mumkin, lekin qadriyaviy tanlov sifati yozma qaror va uning dalili orqali aniqlanadi. Bir xil qarorni tanlagan ikki talabaning asosi turlicha bo‘lishi ham mumkin. Baholash aynan shu farqni ko‘rishi kerak. Taklifning ilmiy-metodik ahamiyati media tekshiruvi bilan axloqiy bahoni bitta qaror jarayonida muvofiqlashtirishidadir. Axborot tahlili ishonchlilikni, qadriyaviy tahlil esa foydalanish usulini asoslaydi. Dissertatsiyadagi raqamli muhit haqidagi qoidalar shu yo‘l bilan o‘lchanadigan topshiriqqa aniqlashtiriladi [1]. Metodik natija umumiy internetdan foydalanish tavsiyasi emas, tanlovning asosini ko‘rsatadigan faoliyat tartibidir. Modulni amalda tekshirishda materiallar murakkabligini tenglashtirish, baholovchilar talqinini moslashtirish va yangi vaziyatdagi mustaqil javobni kuzatish zarur. Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishdan kundalik raqamli xulq to‘liq o‘zgargan degan xulosa chiqarilmaydi. Bunday o‘zgarishni o‘rganish uchun davomiy kuzatuv, turli vaziyat va talabaning real tanloviga doir alohida dalillar talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki, raqamli axborotni qadriyaviy baholashda manbaning ishonchliligi bilan foydalanish oqibati birgalikda o‘rganiladi. Inson qadri mezoni shaxsga doir tafsilotni tanlash, bag‘rikenglik mezoni umumlashtirishni tekshirish, mas’uliyat mezoni esa tarqatish va tuzatish qarorini asoslash orqali namoyon bo‘ladi. Bu mezonlar talabaning raqamli harakatini aniq tahlil qilishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan tartib va topshiriqlar axborotning da’vosi, manbasi, ta’siri hamda amaliy qarorini bog‘laydi. Talabaning individual qaror varag‘i, qayta ifodalangan matni va tuzatish sababi asosiy baholash dalillari sifatida olinadi.

Keyingi tadqiqotda modulning mazmuniy muvofiqligi, vaziyatlar o‘rtasida natijaning ko‘chirilishi va real faoliyatdagi barqarorligi tekshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdug‘aniyev O. T. Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari. Monografiya. 2026-yil. 204-b.
2. UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. 2nd ed. Paris: UNESCO, 2021. URL: https://iite.unesco.org/publications/media-and-information-literate-citizens-think-critically-click-wisely/
3. Richardson J., Milovidov E. Digital Citizenship Education Handbook. Strasbourg: Council of Europe, 2019. ISBN 978-92-871-8734-5. URL: https://rm.coe.int/digital-citizenship-education-handbook/168093586f
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahriri 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan. 13-modda. URL: https://lex.uz/docs/-6445145
5. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture: Guidance Document for Higher Education. Strasbourg: Council of Europe, 2020. URL: https://rm.coe.int/rfcdc-guidance-document-for-higher-education/1680a08ee0